JIZZAX VILOYATI G‘ALLAOROL TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 15 - avgust 185-3-45-Q/23 G‘allaorol tumani hokimligi

Tuman markazidagi ichki ko‘chalarga yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.

“O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonunning 7-moddasiga muvofiq Do‘stlik MFY Tinchlik, Ziyolilar, Durodgorlar va Tadbirkorlar ko‘chalarida yashovchi fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqib hamda ushbu hududdagi ta’mirlangan xo‘jaliklararo ichki ko‘chalarning saqlanishini ta’minlash maqsadida G‘allaorol tumani Adliya bo‘limining 2023 yil 4 avgust kuni tuman hokimligiga 1-14/11-7/734-son bilan taqdim qilgan taqdimnomasini inobatga olib:

Qaror qilaman:

1. G‘allaorol tumani Adliya bo‘limining 2023 yil 4 avgust kuni tuman hokimligiga 1-14/11-7/734-sonli taqdimnomasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (X.Mamaraximov)ga tuman hududidagi ta’mirlangan Do‘stlik MFY Tinchlik, Ziyolilar, Durodgorlar va Tadbirkorlar ko‘chalariga tasdiqlangan loyihaga ko‘ra 3.11 “Vazn cheklangan” yo‘l belgisi o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman IIB YHX bo‘limi (E.Mamasharipov) yo‘l belgilari o‘rnatilgan yo‘l qismlarida yo‘l xarakati qoidalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida kuchaytirilgan tartibda nazorat olib borilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Mamarajabov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Ж.Оқбоев**